



## IQTISODIYOT YO'NALISHIDA TA'LIM OLAYOTGAN TALABALARNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANA OLISH DARAJASINI OSHIRISH

<sup>1</sup>A.X.Rajabov

Toshkent amaliy fanlar universiteti "Informatika" kafedrasida o'qituvchisi  
Rajabovasiddin254@gmail.com

<sup>2</sup>Z.A.Xolmirzayeva

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti "Yengil sanoat texnologiyasi va dizayn" fakulteti 1-kurs talabasi  
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7928028>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> April 2023

Accepted: 14<sup>th</sup> April 2023

Online: 25<sup>th</sup> April 2023

### KEY WORDS

*Globallashuv, axborotlashgan jamiyat, iqtisodiyotda axborot texnologiyalari, taqdimot, reklama.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada iqtisod yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning axborot texnologiyalaridan foydalana olish darajasini ko'tarish masalasi talqin qilinadi.*

### KIRISH

Hozirgi axborotlashgan jamiyatda zamon bilan hamnafas qadam tashlash talab etiladi, aks holda inson jamiyatda o'z o'rnini topa olmasligi, jamiyat rivojiga o'z xissasini qo'sha olmasligi, hayot sinovlariga bardosh bera olmasligi, faollik darajasini yo'qotib turli qiyinchiliklarga duch kelish ehtimoli juda yuqori bo'ladi. Bu ehtimoliy vaziyatlarga tushmasligi uchun inson axborotlar bilan ishlash jarayonlari: axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash, undan foydalanish, talab etilgan holatda uni uzatish va shu kabi bilimlarni o'zlashtirishi talab etiladi.

Jamiyatning barcha sohalarida axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalarini qo'llash shu soha rivojining asosiy ustuvor yo'nalishi bo'lib qoldi. Jumladan jamiyat qaddini tik tutib turadigan tanasi, asosi xisoblangan iqtisodiyot sohasida axborot texnologiyalarining qo'llanishi soha rivojida asosiy o'ringa chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19- fevraldagi №PF-5349-sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjatga binoan iqtisodiyotda biznesni rivojlantirish va zamonaviy ish o'rinlarini yaratishda axborot texnologiyalarini asos qilish ta'kidlab o'tilgan. Bu qaror sohaga AKT ni tadbiriq etishga qonuniy asos bo'la oladi.

### ADABIYOTLAR TAXLILI

"Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda fidoiy ba vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib xissa qo'shadilar".



“Dunyoda globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi vaziyatda barcha sohalarda yuksak bilimli kadrlarni tayyorlamasak, taraqqiyotdan ortda qolib ketishimiz mumkin”<sup>1</sup>.

## **NATIJALAR**

Zamonaviy iqtisodchi, bankir, buxgalter, auditor deganda, zamon bilan hamnafas ya’ni axborot texnologiyalari vositalaridan samarali foydalangan holda boshqaruvni tashkil etadigan boshqaruvchi tushuniladi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana bilmagan mutaxassis sohada o’z o’rnini topa olishi so’roq ostida qoladi.

Ilg’or g’oyalarni, loyihalarni, statistik ma’lumotlarni taqdim etishda axborot texnologiyalaridan va vositalardan samarali foydalanish maqsad sari eltuvchi katta kuch bo’lib xizmat qiladi.

Buxgalteriya xujjatlarini tayyorlash, xisobotlar tayyorlash, ularni chop etish, so’ralgan manzilga yetkazish xodimdan kompyuter bilimlari, ko’nikmalari va tajribani talab qiladi.

## **MUXOKAMA**

Axborot texnologiyalari iqtisodiyot va moliya tizimida quyidagi maqsadlarda foydalanilmoqda:

1. Pul o’tkazmalari; davlat tashkilotlari, xususiy korxonalar, jismoniy shaxslar, xalqaro pul o’tkazmalari jarayonida to’liq kompyuter texnologiyalaridan foydalanilmoqda.
2. To’lov tizimlari; komunal to’lovlar, ijtimoiy to’lovlar, elektron savdo uchun to’lovlar, aloqa tizimlari, internet xizmatlari uchun to’lovlar, ta’lim shartnomalarini to’lash, soliq to’lovlarini to’lash, ko’rsatilgan xizmatlar uchun to’lovlar va boshqa to’lov tizimlari to’liq axborot texnologiyalari xizmatlaridan foydalanilmoqda.
3. Bank, solik, buxgalteriya, bojxona va boshqa iqtisodiyot bo’g’inlarida xujjatlar almashinish tizimini tashkil qilish. Bunda xujjatlar aylanmasi elektron shaklda amalga oshiriladi. Bunda inson omili quyi pog’onalarga tushadi. Bu esa xujjatlar almashish jarayonini tezlashtiradi, sifatni yaxshilaydi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi, vaqtni tejaydi, xato va kamchiliklar bo’lsa bartaraf etishni yengillashtiradi.
4. Boshqaruv tizimlarida; axborotlar almashinishini tezlashtiradi, tizim bo’g’inlari o’rtasida muloqotni tashkillashtirishda asosiy vazivani bajaradi, davlat, korxonalar va tashkilotlarda fuqarolar bilan muloqotda avtomatlashtirilgan tizimlar faoliyatida foydalanishni yo’lga qo’yadi. Bu esa fuqarolar bilan vujudga kelishi mumkin bo’lgan turli xil: navbatlar bilan bog’liq bo’lgan, to’lovlar bilan bog’liq bo’lgan, xujjatlar bilan bog’liq bo’lgan muammolar yechimiga olib keladi.
5. Iqtisodiy soha xodimlarining malaka toifalarini oshirish, boshqa kasblarga o’qitish, turli darajadagi: respublika miqyosidagi, xalqaro darajadagi seminarlarda, anjumanlarda online ishtirok etishini ta’minlaydi.

## **XULOSA**

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, iqtisodiyot yo’nalishidagi talabalar axborot texnologiyalari bilan bog’liq bo’lgan nazariy va amaliy bilim va ko’nikmalarni mukammal o’zlashtirishi kelajak ish faoliyatini ta’minlovchi asosiy vosita bo’lib xizmat qiladi.

<sup>1</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yildagi murojaatnomasidan iqtiboslar.



Bo'lajak mutaxassisga Jamiyatda o'z o'rnini topishda ko'makchi bo'lib, ish faoliyatida vujudga keladigan muammolarni bartaraf etishda asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun talabalardan axborot texnologiyasi vositalari va dasturiy ta'minoti haqidagi bilim va ko'nikmalarni mukammal o'zlashtirishi talab qilinadi.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi hamda O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqidan iqtiboslar.
2. G'. M. Porsaev Korxonada menejmentida axborot texnologiyalari. Uslubiy qo'llanma. Samarqand, 2010.
3. Информационные ресурсы и технологии в экономике: Учебное пособие / Под ред. Романова А.Н.. - М.: Вузовский учебник, 2018. - - 319 с
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.avloniy.uz](http://www.avloniy.uz)
6. <https://scienceforum.ru>
7. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasi davlat portali
8. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.